

# Tong yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N: 5 (67326)  
2021-yil 1-fevral

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092



## «TONG YULDUZI»ga xat

Salom, sevimli nashrim!  
Men bu yil 1-sinfga o'qishga qabul qilindim. Yangi ta'mirdan chiqqan ulkan maktabda o'qish qanday yaxshi! Ochig'i, har gal shu maktabning yonidan o'tganimda, qaniydi, tezroq katta bo'lsam-u, maktabga o'qishga borsam, deya orzu qilar-dim. Ustozim Dilorom opa, xuddi oyijonimga o'xshagan mehribon. Sinfdoshlarimning

barchasi ularni birdek yaxshi ko'ramiz. Yaqinda «Alifbe» darsligini tugatib, «O'qish» kitobiga o'tdik. Ustozim bizga qo'shimcha badiiy adabiyotlar, gazeta va jurnallarni o'qishimiz lozimligini aytdilar va «Tong yulduzi» gazetasidan yozuvchi Faxriddin Hayitning «Sabr to'la sandiq» ertagini o'qib berdilar. Yana ustozimiz bir-birimiz bilan ahil-inoq bo'lishimiz kerakligini uqtirdilar.

Sevimli gazetam – «Tong yulduzi»! Sening sahifalaringda qiziqarli ertak va hikoyalar ko'p ekan. Shuning uchun men va sinfdoshlarim barchasi senga obuna bo'ldik. Yil bo'yi bizga hamroh ekanligingdan juda-juda mamnunmiz!

**Asilbek NABIYEV,**  
poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi  
206-umumta'lim maktabining  
1-«A» sinf o'quvchisi

### USHBU SONDA:

«ELGA GAR BU ISH HUNAR BO'LSA...»



2-bet

BIR KUNI DARSDA...

3-bet

QORA PANJANING SARGUZASHTLARI

6-bet

# SAHRODA SAYRAGAN SOZ



Muhtaram Prezidentimiz rahbarligida joriy yilning 19-yanvar sanasida o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar ta'sirchanligini yanada oshirish borasidagi dolzarb vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda ijod maktabimizda «Sahroda sayragan soz» nomli ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi. Ushbu tadbirni Turon Fanlar Akademiyasining akademigi, elimizning ardoqli shoiri Muhammad Ismoil ochib berdi.

Ustoz o'z nutqida ijod olami juda sirli va sehirli bilan bir qatorda, o'ziga xos qiyinchiliklarga ega ekanligi, ijodkorning hosili bir-ikki yilda emas, balki uzoq yillar davomida yetilishini, bugungi ijodkorning yozgan-

lari ertangi taraqqiyotni, jamiyatning ma'naviy turmush tarzini belgilab berishini ta'kidlab o'tdilar. Shuningdek, ijod maktabi direktori, ustoz Muhammad Ismoil o'zining nutqida quyidagilarni ham aytib o'tdilar: «Qaysiki davlatda adabiyotga e'tibor kuchaytirilsa, uning istiqboliga, yuksak kelajagiga poydevor yaratiladi. Insonning bilimni hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi, ilm bu tengsiz, bebaho boylik. Bu yo'l biroz olis, mashaqqatli bo'lsa-da, uning oxiri, eltar manzillari nurli, sharafli, ko'ngillarga huzur-halovat bag'ishlovchi orombaxshdir».

Kechaning badiiy qismi Sirdaryo viloyati maqomchilari ijrosidagi dilrabo kuy bilan boshlandi. O'zbekiston xalq shoirasi Halima Xudoyberdiyevaning «Dorilamon kunlar keldi» she'ri bilan aytilgan qo'shiqning maqomchilar ansambli tomonidan ijro etilishi tadbirga fayz kiritdi.

Tadbir davomida ijod maktabi o'quvchilaridan Zulfiya Ismoilova H. Xudoyberdiyevaning «Da'vat», Ne'matillo Bobo-

## «ELGA GAR BU ISH HUNAR BO'LSA...»

«To'g'ri, Ka'ba Allohning uyi, lekin u ramziy uy. Allohning haqiqiy uyi insonning ko'nglidir», deya ta'kidlagan buyuk mutafakkir Alisher

Navoiy qalamiga mansub go'zal va sermazmun g'azallarni mutolaa qilar ekanmiz, beixtiyor o'sha davrning sadolarini eshitgandek bo'lamiz.

Alisher Navoiy g'azallari she'riyat mulkining bebaho durdonalaridir. Ularda ishq bor, dard bor. Beorom, otashin qalbning kechinmalari, yuksak va oliyanob ruhning betakror suratlarini, manzaralari bor. Insonni olamning gultoji, deya ta'riflagan Navoiy bobomizning butun ijodiy merosi zahirida ezgulik, adolat, nafasat va dunyoni saqlab turuvchi yuksak tuyg'ular mujassam.

Mehr-u vafo, iffat, sharm-u hayo va nazokatni yonib kuylagan Navoiyning betakror satrlarini o'qiyamiz va ming bir hayrat ila tahlilga o'tamiz:

**Ey ko'ngil, ishq o'tidin yonma,**

**Bor-u tashvish berma yona manga,** – deya o'z ko'ngliga ishqning alangasida yonaverib, uni tashvishga solmasligini ta'kidlagan bo'lsa, ushbu:

**Ey Navoiy, ishq mushkul deb nechuk tarkin tutay,**

**Elga gar bu ish hunar bo'lsa, bo'luptur fan manga,** – deb yozadi shoir. Baytda lirik qahramon Navoiyga murojaat qilib, «Ishq mushkul ekan, deb nega uni tark etay, agar bu ish elga hunar bo'lsa, mayli, menga fan bo'laqolsin», deydi.

Buyuk shoir va mutafakkir Navoiyning bir jahon ma'no, bir olam his-tuyg'u ifoda etguvchi baytlarini takror-takror o'qib, ko'nglimiz har safar surur va hayajonga to'ladi. Har safar bo' olmos satrlarning yangi qirralarini kashf qilamiz, yangi-yangi ma'no tovlanishlarini ko'rib, hayratlanamiz. Navoiy asarlari-yu g'azallarining asl mazmun-mohiyati o'z davri uchun ham, kelajak avlodlar uchun ham hayot maktabi vazifasini o'tashi, shubhasiz.

Lobar DAVRONOVA,  
Navoiy viloyati,  
Navbahor tumanidagi  
34-umumta'lim maktabining  
8-sinf o'quvchisi

ralari bilan  
o'rtoqlashdi.

Yosh ijodkorlar Yorqinjon Hayitboyev, Nazokat Ataqulova, havaskorlar va ijodkor talabalarning o'z qamlari ila qalb qo'ri bilan bitilgan ijod namunalari barchaga manzur bo'ldi.

Ijod maktabining «She'riyat gulshani» to'garagi a'zolari ishtirokida tashkil etilgan «Bahribayt» musobaqasi muxlislarining olqishlari va ustozlarning tasannolariga sazovor bo'ldi.

Shohsanam QARSHIYEVA,  
Halima Xudoyberdiyeva  
nomidagi ijod maktabi  
ona tili va adabiyot fani  
o'qituvchisi

jonov M. Ismoilning «Ijod maktabi madhiyasi», Zulhayo Mingboyeva «Buyur, Vatan!», Shahlo Davronbekova A. Ori-povning «Men nechun sevaman O'zbekistonni?!», Gulsanam Turg'unboyeva «Dorilamon kunlar keldi» nomli she'rlarini ifodali o'qidilar. Ohanrabodek go'zal ovoz, sehirli ifoda bilan ijro etilgan she'rlar yig'ilganlarda katta taassurot uyg'otdi.

Shundan so'ng, so'z navbati Sayxunobod tumanidagi Halima Xudoyberdiyeva nomidagi adabiy to'garak rahbari Aziz Xo'jamberdiyevga berildi. Ijodkor o'zining shoirasi Halima Xudoyberdiyeva haqidagi yorqin xoti-



# Bir/kuni darsda...



Maktabimiz juda ko'rkam va katta. Barcha ustozlarimiz o'z fanini puxta bilgani uchun bo'lsa kerak, hamma fanlarga qiziqardik. Sinfdoshlarim orasida darslardan qochib ketadigan o'quvchilar bo'lganini eslay olmayman. Garchi ona tili va adabiyot fani jon-u dilim bo'lsa-da, fizika va kimyodek murakkab fanlardan kiradigan ustozlarimiz mavzular mag'zini miyamizga joylab qo'yishgani uchun u fanlardan ham a'lo baholarga o'qishga harakat qilardim. Hozir o'zim shu maktabda ishlamoqdaman, har bir sinf xonasi ustozlarimning bergan saboqlari-yu ibratlarini yodga solib turadi.

Kimyo fani xonasi

## «IXTIRO»NING NATIJASI

gullarga boy edi. Bir kuni ustozimiz gullarga suv quyib, xonani tartibga keltirib qo'yishni biz – uch dugonaga tayinladilar. Biz gullarning bargiga qo'ngan changlarni artdik, tagini yumshatdik, suv quydik, xonani tartibga keltirayotib, har doim qulf turadigan laboratoriya xonasi ochiq qolganini ko'rib qoldik. Qiziqib, xonaga kirdik. Avvaliga turli hajmdagi shisha idishlar (probirkalar)ni, ularning ichidagi rangli moddalarni zavq bilan tomosha qildik. So'ngra, tajriba o'tkazmoqchi bo'ldik. Idishdagi suyuqliklarni boshqa idishdagi moddalarga aralastirib, hosil bo'lgan ranglarni qiziqib tomosha qildik. O'sha kuni sezmagam ekanman, onam yaqinda olib bergan yangi kurtkamning old tarafi ikki joyi o'yilib ketibdi. Matosining rangi o'zgargan, xuddi kuyganga o'xshash iz qolgandi. Uydagilardan qo'rqqanimdan kurtkamni berkitib qo'yib, eski paltomni kiyib darsga keldim.

Ertasi kuni ustozimiz voqeadan xabar topib, yaxshigina tanbeh berdilar, yarim soatlik darsni laboratoriya xavfsizligiga bag'ishlab ma'ruza qildilar. Yaxshiyam yuzingizni, qo'lingizni kuydirmabdi, deb rosa koyidilar. Uyda ham sirim oshkor bo'ldi. Chunki ustozimiz har birimizning ota-onamizga aytib ulguribdilar. Shu voqea sabab bilib-bilmay, «ixtiro»lar qilmaslikka, laboratoriyadagi idishlarga ustozimizning ruxsatisiz tegmaslikka so'z berdim. Hayvonlarga, tabiatga munosabatda ham ehtiyotkor bo'lish kerakligini tushundim. Ayniqsa, insonlarga nisbatan munosabatda yanada ehtiyotroq bo'lish kerakligini angladim.

**Dilorom ZUFAROVA,**  
poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 249-umumta'lim  
maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi



## XOVOSDA «BOLALAR PRESS KLUBI»

Bugungi kun yoshlari o'z fikrlarini erkin bayon etayotganligi, tashabbus va takliflarini ilgari surayotganligiga barchamiz guvoh bo'lyapmiz. Ana shunday faol, tashabbuskor yoshlarning taklif va mulohazalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida Sirdaryo viloyatining Xovos tumanida O'zbekiston yoshlar ittifoqi Sirdaryo viloyati Kengashi tomonidan «Bolalar press klubi» tashkil etildi. «Sardorlar Kengashi: ijtimoiy faollik yoki namunali ta'lim» mavzusida o'tkazilgan yig'ilishda tuman, maktab hamda tuman sardorlar Kengashi vakillari o'z taklif va tashabbuslari bilan ishtirok etishdi.

Tadbirda: «Bugungi kun bolalariga ijtimoiy faollik kerakmi?», «Ular ijtimoiy faol bo'lishlari uchun ko'proq nimalarga e'tibor qaratishlari lozim?», «Jamoatchilikdagi faolliklari uchun qanday yutuq va kamchiliklarga ega bo'lishadi?», «Mamlakatimiz rahbarining biz yoshlarga qaratgan e'tiborlari va yaratayotgan imkoniyatlaridan qanday foydalanishimiz mumkin?» yoki «Ijtimoiy faollikdan kechib ta'lim yo'lini tanlashimiz kerakmi? Shu bilan birgalikda ijtimoiy faollik va ta'limni birgalikda olib borishimiz uchun nimalarga e'tibor qaratishimiz kerak?» kabi savollarga aniqlik kiritildi.

Bahs va munozalarga boy tarzda o'tgan muloqot davomida sardorlar muammolarni hal qilishi bilan birgalikda bir qancha loyihalarni tuman miqyosida amalga oshirish taklifini bildirishdi. Ularning tashabbuslari O'zbekiston yoshlar ittifoqi Sirdaryo viloyati Kengashi raisi Nargiza Xolboyeva tomonidan qo'llab-quvvatlanib, loyihalar yuzasidan qo'shimcha fikrlar bildirildi.

Ishtirokchilardan Murodjon Quvondiqovning «Bolalar teatr jamoalarini tuzsak, tumanlararo sayohatlar tashkil etib, o'z sahna ko'rinishlarimizni namoyish etib kelsak», degan taklifi barcha bolalar tomonidan ma'qullandi.

Nafaqat Xovos tumanida, balki viloyatimizning boshqa tuman hamda shaharlarida ham «Press club»lar tashkil etish rejalashtirilgan. Zero, har bir bolaning taklifi biz uchun muhim!

**Nigora ORIFJONOVA,**  
Guliston shahridagi 5-umumta'lim  
maktabining 11-sinf o'quvchisi





## YURAKLARDA BARHAYOTSIZ

(Marhum Birinchi Prezidentimiz  
I.A.KARIMOVning yorqin xotiralariga  
bag'ishlanadi)

Shu el uchun baxsh etdingiz umringizni,  
Xalqingiz hech unutmaydi, ota sizni.  
Har bir inson yuragida barhayotsiz,  
Tinchlikni yod etganlarga kuch-qanotsiz.  
Alloh bergan umr ekan o'z qo'lida,  
Umringizni baxsh etdingiz haq yo'lida.  
Orzusiga yetkazdingiz xalqingizni,  
Ichga yutib yashadingiz dardingizni.  
Yurt va ulus tinchligi deb yashagan zot,  
Dilband bo'lib ruhingizni qilaylik shod.  
Sabrda va matonatda tengingiz yo'q,  
Izingizdan borayapmiz ko'nglimiz to'q.

**Turdixon ABDUSAIDOVA,**  
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi  
17-umumta'lim maktabi  
o'quvchisi

**Gulira'no ANVAROVA,**  
Abdulla Qodiriy  
nomidagi ijod  
maktabining 8-sinf  
o'quvchisi



## NOMINGIZNI YOD AYLAYIN

Mir Alisher bobomni,  
Uchratdim go'zal bog'da.  
Shoshib u kishi tomon,  
Qadam qo'ydim shu zamon.

Baland bo'yli, zabardast,  
Pahlavon o'zbek o'g'lon.  
Tik tutib qomatini,  
O'qiyotgandek doston.

Qo'llarida hassasi,  
Yurayotgandek gohi.  
Xayollari samoda,  
So'zlagandek nigohi.

Ruhingiz shod aylayin,  
Nomingiz yod aylayin.  
O'zbek elin nomidan,  
Duolarim yo'llayin.

**Abdulaziz  
ABROROV,**  
Buxoro  
viloyati,  
Shofirkon  
tumanidagi  
4-umumta'lim  
maktabining  
7-«A» sinf  
o'quvchisi



## DILGA DILDOSHIM

Qalbi quyosh bobojon,  
Baxtinga bosh bobojon.  
G'amxo'rim, mehribonim,  
Dilga dildosh bobojon.

Sizni qalbingiz olam,  
Dardli dillarga malham.  
Doim bo'lingiz bardam,  
Metin bardosh bobojon.

O'gitingiz dilimda,  
Kitob tutar qo'limga.  
Eshik ochar bilimga,  
Menga yo'ldosh bobojon.

Mehringizdan kuch olib,  
Dilga qat'iyat solib.  
Doim bo'laman g'olib,  
Qalbi quyosh bobojon.

## PREZIDENT UNIVERSITETI TALABASI BO'LMOQCHIMAN!

2020-yil 25-deka-  
br sanasi biz yoshlar  
uchun chin ma'noda  
unutilmas kun bo'ldi,  
desam, adashmay-  
man. Mamlakatimiz  
Prezidentining yosh-  
lar bilan uchrashuvi  
boshlanishi arafasida  
qanchalar hayajonlan-  
gan bo'lsam, yakuni-  
da o'zimda qandaydir  
shijoat va dadillik his  
etdim. Tengdoshlarim  
Yurtboshimizga ko'plab  
savollar bilan murojaat qilishdi. Mana, oradan  
bir oy o'tib-o'tmay, forumda kiritilgan takliflar  
asosidagi qarorlar ijrosi amalga oshirilayot-  
ganining guvohi bo'lib turibman.



Oksford tajribasiga asoslanib tashkil  
etilayotgan Prezident universiteti til biluvchilarni  
o'z bag'riga chorlamoqda. Men Prezident  
universitetining ilk qaldirg'ochlaridan biri  
bo'lmoqchiman.

Aziz yoshlar, siz ham bunday imkoniyat-  
lardan foydalaning. Keling, kelajak sari birga  
qadam tashlaylik!

**Gulbahor OLIMOVA,**  
Toshkent shahri, Sergeli tumanidagi  
266-umumta'lim maktabining 11-sinf  
o'quvchisi

## BOBOMGA O'XSHAGIM KELADI

Hayot turli sinovlardan  
iborat. Sinovlar qarshisida  
qiyinchiliklarga duch kelishimiz  
tabiiy. Bu sinovlarni aql bilan,  
sabr bilan yengib o'tayotgan  
insonlarga havas qilamiz.

O'zining halol mehnati, bilimi,  
ibratli ishlari bilan el-yurtda hur-  
mat-ehtram qozongan, biz nevara-yu  
chevaralariga hayotda o'z o'rnimizni  
topishimizda ko'maklashayotgan ya-  
qin maslahatchim bu bobojonimdir.  
Ular oilamizning faxri, charog'boni,  
fayzi, o'ttiz beshga yaqin nevara-yu  
chevaralarning suyuqli bobojoni.

Bobom har birimiz o'z kelajagimizni  
o'zimiz qurishimiz kerakligini bot-bot  
ta'kidlaydilar. U kishi bizga hayot-  
ga qalb ko'zi bilan qarashni o'rgat-  
dilar. Bobojonim hayotiy o'g'itlari bilan  
ma'naviyatimizni boyitishga katta hissa  
qo'shyapti. Ko'p o'qishimiz, puxta bilim



egallashimiz kerakligini uqtiradilar.

Ularning berayotgan o'g'itlari, masla-  
hatlari hayotda menga dasturulamal  
bo'lib xizmat qiladi.

Bobom Shamsiddin Oripov o'tgan  
yili «O'zbekiston Respublikasi qishloq  
xo'jaligi fidoyisi» unvoniga sazovor bo'ldi.  
Bu yuksak mukofotga soha rivojiga  
qo'shgan hissalarini, samarali mehnatlari,  
boy tajribalari tufayli sazovor bo'lganliklarini  
onamdan, qarindosh-urug'lardan eshitib,  
havasim ortadi. Bobomga o'xshagim  
keladi.

– Hayot sinovlari insonni tarbiyalaydi,  
– deydi bobom. – Yiqildingmi, yana qayta  
tur. Agar qayta turmasang, iredang bo'shlik  
qilsa, dunyodan izzis o'tib ketasan.

Ha, keksalar borki, oilalar tinch, fayzli.  
Ularni qadrlash, ibratli ishlaridan o'nak  
olish har birimizning farzandlik burchimiz  
bo'lmo'g'i lozim.

**Jalilbek SHARIFJONOV,**  
poytaxtimizning  
Uchtepa tumanidagi  
283-umumta'lim maktabi  
o'quvchisi



## ABDULBOSIT – KOREYS TILIDAGI QO‘LLANMA MUALLIFI

12 yoshli Abdulbosit bolalarga koreys tilini o‘rgatuvchi kitobcha yaratdi. Koreys tilini o‘rganishning kreativ usullarini ishlab chiqqani uchun «Korea Multicultural Youth Awards» tanlovida g‘olib bo‘lib, 1 million von pul mukofotini qo‘lga kiritdi. Tengdoshimiz ushbu mablag‘ni yangi kitobcha yozishga sarflamoqchi. Abdulbosit Abdulhamidov asli marg‘ilonlik. Otasining ish faoliyati Janubiy Koreya davlati bilan bog‘liqligi sababli 2017-yilda oilasi bilan bu mamlakatga boradi va o‘qishni mahalliy maktabda 3-sinfdan davom ettiradi. U Kyongido provinsiyasidagi Xvason shahrida o‘rta maktabda o‘qiyapti.

Koreys tilini mutlaqo bilmaydigan hamyurtimiz bu tilni tezda o‘zlashtirib oldi, 2019-yilda maktabning eng a‘lochi o‘quvchisi sifatida taqdirlandi. 2020-yilda tilni qanday o‘zlashtirgani haqida kitobcha chop ettirdi. Boshlang‘ich koreys tilini

o‘rganish uchun maktab o‘quvchilari bu kitobchadan foydalanishlari mumkin. Kitobcha ruscha-koreyscha o‘quv qo‘llanmasi sifatida Koreyaga yangi kelgan o‘quvchilar uchun maktab kutubxonalariga tarqatildi. Qo‘llanmada kundalik hayotda eng ko‘p ishlatiladigan so‘zlar va iboralar jamlangan.

Ma‘lumot uchun, «Korea Multicultural Youth Awards» tanlovini Janubiy Koreyaning eng yirik nashrlaridan biri – «The Korea Times» gazetasi ta‘sis etgan. Tanlov mamlakatda yashayotgan turli millat vakillarining farzandlari orasidan iqtidorlarini topib, taqdirlashga qaratilgan.

Xorijdagi vatandosh do‘stimizning bu muvaffaqiyatini eshitib, behad quvondik, faxrlandik. Yangi zafarlar sari olg‘a, tengdoshim!

**Marjona JO‘RAQULOVA,**  
Respublika «Ittifoq» sardori




## Baby Animals

Fill in the crossword puzzle grid with the names of each animal's baby. Use the word bank if you get stuck.



- Across
2. Sheep
  4. Crocodile
  5. Fox
  6. Dog
  7. Duck
  11. Eagle
  12. Bear
  14. Deer
  15. Kangaroo



- Down
1. Horse
  3. Rabbit
  5. Goat
  6. Pig
  8. Chicken
  9. Cow
  10. Cat
  13. Human

### Word Bank

- |        |           |          |
|--------|-----------|----------|
| Baby   | Calf      | Cub      |
| Fawn   | Hatchling | Kid      |
| Lamb   | Puppy     | Duckling |
| Bunny  | Chick     | Kit      |
| Foal   | Joey      | Eaglet   |
| Piglet |           | Kitten   |



## Choose one of the following relative pronouns who, which or whose from the drop down menu.



- I talked to the girl \_\_\_\_\_ car had broken down in front of the shop.
- Mr Richards, \_\_\_\_\_ is a taxi driver, lives on the corner.
- I live in a house in Norwich, \_\_\_\_\_ is in East Anglia.
- This is the girl \_\_\_\_\_ comes from Spain.
- That's Peter, the boy \_\_\_\_\_ has just arrived at the airport.
- Thank you very much for your e-mail, \_\_\_\_\_ was very interesting.
- The man, \_\_\_\_\_ father is a professor, forgot his umbrella.
- The children \_\_\_\_\_ shouted in the street are not from our school.
- The car, \_\_\_\_\_ driver is a young man, is from Ireland.
- What did you do with the money \_\_\_\_\_ your mother lent you?

Bu g'aroyib voqea Afrikaning janubida joylashgan Botsvana mamlakatining «Sabuti» qo'riqxonasida sodir bo'lgan edi. O'sha vaqtlar qo'riqxonada qurg'og'chilik hukm surmoqda edi. Daraxtlar, butalar va o'tlar suvsizlikdan qovjirab yotar, o'txo'r hayvonlar boshqa hududlarga ketib qolishgan, arslon, qoplon va sirtlon kabi yirtqich hayvonlarning kun kechirishi nihoyatda og'ir edi. Mana shunday qiyin vaqtda qo'riqxonaning uchta erkak sherlari yetakchiligidagi to'dada Sabor laqabli urg'ochi sher vohaning shimolidagi qoyalar orasidagi ungurda, ko'zdan pana joyda ikkita shervachchani dunyoga keltiradi. Sher bolalarining biri erkak, ikkinchisi esa urg'ochi edi. Erkagining boshqa sher bolalaridan farqlanadigan joyi shu ediki, uning oldi chap panjasi qora rangda edi. Umuman bunday holat tabiatda juda kam uchraydi. Qo'riqxonada xodimlari unga

«Qora panja» laqabini berishdi. Shervachchalar og'ir sharoitda dunyoga kelishgan va qo'riqxonada xodimlari ularning yashab ketishi hamda omon qolishiga shubha bilan qarashar edi. Sher bolalari uch haftalik bo'lganda, Sabor ularni asosiy to'daga olib keldi. To'dadagi sher bolalari Qora panja va uning singlisidan bir oylik katta edilar. Yangi kelgan shervachchalar ularning ermagiga aylanishdi.

Tabiatan sher bolalari o'ynoqi va sho'x bo'lib, katta sherlar dam olayotgan vaqtda ham tinch yotmaydilar, chopib-yelib, bir-biri bilan olishib, kelajakdagi hayotlariga mashq qilib tayyorgarlik ko'rishadi. Rivojlanishda bir oy oldinda bo'lgan Qora panjaning xolavachchalari bu ikki mittivoylarga sira kun berishmas, xuddi tirik qo'g'irchoqday ularni piypalab qiynashar edi. Ona Sabor to'dadaligida hech kim ularga yaqinlasha olmas, u boshqa ona sherlar bilan ovga ketganda, bolalariga kun berishmas edilar.

Kunlardan bir kun savannada zebalar podasi o'tlab yurganda, Sabor va uning opa-singillari ularni ovlash uchun pistirmadan turib to'satdan hujumga o'tishadi. Zebra oson o'lja emas, uni ovlash, albatta, xavf-xatar bilan bog'liq, chunki zebra orqa oyoqlarining zarbasi manaman degan erkak sherning jag'ini sindirib yuborishi mumkin. U mana shunday kuchli hayvon hisoblanadi. Tabiatda jag'i singan, mayib bo'lgan sherlar uchrab turadi. Ularga bunday jarohatlarni asosan, kafr ho'kizlari, jirafalar, fillar, begemotlar hamda zebalar yetkazadilar. Sher o'ljasiga pistirmadan turib hujum qiladi va ko'pincha hayvonning orqa tomonidan tashlanadi. Hech bir hayvon shunday taslim bo'lmay, balki yirtqichlarga qattiq qarshilik ko'rsatadi. Bu borada zebalar o'ziga xos tajribaga egadir. Bu gal ham shunday hodisa sodir bo'ldi, zebra jon-jahdi bilan sakragan Sabor to'daning sardori bo'lmish yirik hayvonga ro'para bo'ldi

va uning qaqshatqich zarbasiga uchradi. Zarba shunday kuchli ediki, Saborning jag'i ikkiga ajralayozdi. Sabor shu onda hushidan ketib yiqildi.

Ona sher og'ir jarohat natijasida ovqat yeya olmay, azob-uqubatda jon beradi. Bu jarayon mobaynida sher ozib ketdi, teri va suyakdan boshqa hech narsasi qolmadi. Bolalariga endi to'dadagi boshqa urg'ochi sherlar g'amxo'rlik qiladigan bo'ldilar.




## QORA PANJANING SARGUZASHTLARI

(Hikoya)

Sherlarda shunday instinkt bor, to'daning birorta a'zosi halok bo'lsa, uning o'rnini boshqasi bosadi va hayot davom etaveradi.

Qora panja hayotning shafqatsiz zarbasiga uchradi. Qurg'og'chilik davrida o'lja topish qiyin va to'da ko'pincha och qolardi. Ming azob bilan tutilgan o'ljaga birinchi galda to'da sardorlari, so'ngra ona sherlar, ulardan ortasigina shervachchalar sherik bo'ladi. Tilka-pora qilingan o'lja teri va suyagi qolguncha yeb



bitirilardi. Eng yaxshi luqmalarni kuchli sherlar yer edi. Kichkintoylarga esa sarqitlar qolardi, xolos. Unda ham ulgurganni tishlab, o'z ulushini undirishi mumkin edi. Ba'zan onasiz qolgan Qora panja va singlisiga hech vaqo tegmasdi, shunda ular bir-birining pinjiga kirib unsiz yig'lashardi. Bir kuni to'da sardorlari hududni aylanishga ketishganda, urg'ochi sherlar gnu ohusini tutib yeyishayotgan

To'lqin SAYIDALIYEV,  
iste'fodagi podpolkovnik

vaqtda, o'ttizza yaqin sirtlonlar galasi sherlarga hujum qiladi. Tabiatda sirtlonlar sher bilan yakkama-yakka olisha olmaydi, ular ko'pchilik bo'lib hujum qilishadi va sherlarni ortga chekinishga majbur qilishadi. Ayniqsa, to'daning sardorlari yo'q bo'lsa, sirtlonlar quturgandan quturib ketardi. Sirtlonlarga erkagi emas, balki urg'ochi sirtlon yetakchilik qiladi, unga hamma so'zsiz bo'ysunadi va itoat etadi. Qo'riqxonada xodimlari bunday to'qnashuvlarga o'rganib qolishgan. Biroq bu galgi to'qnashuv juda dahshatli bo'ldi. Savannada qurg'og'chilik tufayli o'txo'r hayvonlar kamayib ketgani uchun har bir o'lja hisobida, yashash uchun etni junjiktiradigan qichqiriqlari bilan bostirib kelishdi. Kuchlar nisbati teng bo'lmaganligi uchun sherlar o'ljani boy berib, chekinishga majbur bo'lishdi. Qo'riqxonada xodimlarining ko'p yillik kuzatishlari shuni ko'rsatdiki, sirtlonlar sherlarga nisbatan uch barobar ko'proq bo'lsagina, qo'llari baland kelib, o'ljani tortib olar ekan. Bu hujum to'dani sarosimaga soldi va uni to'zg'itib yubordi. Sher bolalari har tomonga tarqalib ketdi, natijada ular sirtlonlar uchun

oson o'ljaga aylanishdi. Qora panjaning singlisi to'qnashuvda sirtlonlarga yem bo'ldi. Qora panjaning ko'z o'ngida sodir bo'lgan bu dahshatli voqea uning yodida muhrlandi. U sherlarning savannadagi raqibi va dushmani sirtlonlar ekanini ich-ichidan tushundi. Onasi va singlisidan ayrilgan Qora panja uchun qora kunlar boshlandi. To'dadagi boshqa shervachchalar uni kichik bir o'yinchoq sifatida ko'rishar, bo'sh qolishdi deguncha o'zlarining baquvvat panjalari bilan chalib yiqitib qiynashar edi. Bu beozorgina ko'ringan o'yinlar Qora panjaning tinkasini quritar va salomatligi yomonlashishiga olib kelardi. Ona sherlar bu holatga befarq qarashardi, Qora panja kundan kunga zaiflashib borardi.

To'da har safar tungi ovda katta masofani bosib o'tardi. Bunday yurishlar o'ljani qo'lga tushirguncha davom etadi. O'lja bir yoki o'n chaqirimdan tutilishi mumkin. Yosh sherlarning o'yinlaridan tinka-madori qurigan Qora panja to'dadan orqada qolib ketardi, agar to'da hayvonni yaqin masofada qo'lga tushirsa, Qora panja to'daga yetib olib oziqlanishi mumkin edi.

Bir kuni to'da uzoqroqdagi suvloqda ov qilish uchun yo'lga tushdi. Zaiflashib qolgan Qora panja orqada qolib ketadi, to'dadagi ona sher uning yoniga borib tezroq yurishga undaydi, lekin u tez yura olmaydi, to'dani ko'zdan yo'qotgisi kelmagan ona sher qadamini ildamlatadi va sher bolasini yolg'iz tashlab ketadi...

(Davomi keyingi sonda)

## «Maktablarda «Tong yulduzi» kunlari» loyihasi davom etadi



Loyiha doirasida shu kunga qadar ko'plab ziyo maskanlarida uchrashuvlar o'tkazdik. Har safar maktab ostonasiga qadam bosarkanman, ichimda bolalar qanday qarshi olisharkan, degan hadik ila hayajon bo'ladi. Buni qarangi, kitobsevar, ijodkor yoshlar bilan kechgan suhbat biz kutgandan ham a'lo darajada o'tadi.

Bu gal Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 234-umumta'lim maktabida bo'ldik.

Fizika fani oyligi doirasida o'quvchilar tomonidan taqdim etilgan chiqishlar, tezkor savol-javoblar ularning o'z ustida puxta ishlaganligidan, ustozlarning

tinimsiz mehnatidan dalolat beradi.

– Barcha fan oylıklarida faollikni birdek qo'ldan boy bermay kelayotgan o'quvchilarimiz juda ko'p. Ularning ijod namunalarini yoritib kelayotgan sevimli nashrimiz «Tong yulduzi» gazetasiga katta rahmat, – deydi maktab kutubxonachisi Vasila Saidova.

O'zbekiston Milliy universiteti fizika kafedrası o'qıtuvchılarının yosh fiziklar bilan kechgan suhbatı qiziqarli bo'ldi.

Tadbir yakunida uyushtirilgan o'zbek va jahon adabiyotiga oid bilimlar bellashuvi o'quvchilarning mumtoz va chet el adabiyotidan qanchalar xabardor ekanliklarini ko'rsatdi.

Yashnobod tumanidagi 61-umumta'lim maktabida ma'naviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Nilufar Rashidova, boshlang'ich sinf o'qıtuvchisi Zuhra Ra-

kechaga o'zgacha mazmun baxsh etdi.

– O'quvchining yozgan she'ri yoki maqolasi gazetada chop etilsa, uning xursandchılıqini, adabiyotga



himjonova hamda maktab kutubxonachisi Nargiza Normurodovalar boshchiligida «Tong yulduzi» bilan ijodiy uchrashuv tashkillashtirildi.

Uchrashuvda turli yo'nalishlar bo'yicha respublika, shahar va viloyat bosqichlarida go'liblikni qo'lga kiritgan ilg'or o'quvchilar ishtiroki, yosh sportchilarning ajoyib chiqishlari

bo'lgan muhabbatini so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. Yanada yangi izlanishlar ila asarlar yaratishga harakat qiladi.

«Tong yulduzi» o'quvchilarimiz uchun chinakam mahorat maktabi vazifasini o'tab kelmoqda, – deydi 4-«B» sinf o'qıtuvchisi Zuhra Rahimjonova.

Husan TURSUNOV

## OQ MO'YNA

(Ertak)

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim o'tgan zamonda o'rmonda Tulkioy va Quyovoy yashagan ekan. Ular ahil-inoq do'st ekanlar. Barcha ishni birgalikda bajarishar, ularni boshqa hayvonlar juda hurmat qilishar ekan. Tulkining ziyrakligi va quyovoyning chaqqonligi tufayli barcha ishlarni a'lo darajada bajarishar ekan. Kun bo'yi ishlab, tunlari dam olisharkan. Quyovoy polizda karam va sabzi yetishtirar, Tulkioy inlarini saranjom-sarishta qilib qo'yar, uni qo'riqlar ekan.

Kunlardan bir kun o'rmonga Ayozi tashrif buyuribdi. U borliqni oqlikka bo'yabdi. Ba'zi hayvonlarga uyqu kukunini beribdi. Bu kukun yordamida hayvonlar uzoq vaqt uyquga ketishlari mumkin edi. Ayozi bu kukunni yo'qotib qo'yibdi. Jahli chiqib, izg'irin yellarini yeldira boshlabdi. Izg'irin kukunni izlab, butun o'rmonni aylanib chiqibdi. Yo'lidagi barcha narsalarni muzlatibdi, ammo topa olmasdi va Ayozi yoniga quruq qo'l bilan qaytibdi. Bu kukun bir yilda bir marta ochiladigan noyob ayoz gulining changi edi. Quyovoy bu kukunni topib olibdi va Tulkioyga

ko'rsatibdi. Tulkioy bu uyqu kukuni ekanligini va Ayozi uni izlayotganini eshitgan edi. Tulkioy kukunni Ayozi huzuriga olib boribdi. Ayozi: «Kukunni kim topdi? Men unga qimmatbaho mukofot beraman!» debdi. Tulkioy: «Men», deb javob beribdi. Ayozi Tulkioyga mo'yna sovg'a qilibdi. Bu xabarni Quyovoy eshitib,

qattiq g'azablanibdi. Chunki eng yaqin do'sti unga xiyonat qilgan edi. Shu kundan buyon Tulkioy «ayyor» degan nom chiqargan ekan.

Iqbolxon MUHAMMEDOVA,

Toshkent shahar,

Yakkasaroy tumanidagi 144-umumta'lim maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi



## Yosh musavvir


Buxoro shahridagi 32-umumta'lim maktabining 2-«E» sinf o'quvchisi Mironshoh Sharipov rasm chizishni yaxshi ko'radi.

Yosh bo'lishiga qaramay, ko'plab tanlovlarda qatnashib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritib kelmoqda. U rassomlikning rang-tasvir yo'nalishida ijod qiladi. Qolaversa, shaxmat o'ynashni ham yaxshi ko'radi.

Mironshoh «Quyoshli kun» onlayn tanlovida qatnashib, 1-o'rinni egallaganligi uchun maktab rahbariyati tomonidan diplom bilan taqdirlandi.



## BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!



1. Bizlar, bizlar biz eslik,  
Qizil ko'ylak qiz edik.  
Birin-ketin uzdilar,  
Bitta ipga tizdilar.

2. Tishlari bor qator-qator,  
Yemasang gar qotib qolar...

6. Yerda sichqon dumchasi,  
Qizil-u oq xumchasi.

7. Qishda ishda, ishi boshda,  
Uch faslda dam olishda.

8. G'uv-g'uv-g'uv etar,  
To'ysa, dumalab ketar.

3. Bir daraxtga osilgan,  
Chopon kiygan askarlar.  
Askar polvon deyishar,  
Mazza qilib, yeyishar.

4. Chaqirsang vaqtida,  
Ko'tarar kaftida.

5. To'kilsa bas, yig'ib bo'lmas...

9. Olmasang yarim nafas,  
Yo'ldan o'tgani qo'ymas.

10. Yum-yumaloq, oy emas,  
Sap-sariq u, moy emas.  
Dumi bor-u toy emas,  
Po'sti qizil, oq emas.

11. Qozonda emas, qaynaydi,  
Qishin-yozin tinmaydi.

12. Dengiz  
emas, yer ham  
emas,  
Kema suzmas,  
yurib bo'lmas.

13. Oltin sandiqcham ichra  
oltin sham.

14. Yozda yoqar,  
Qishda chaqar.

15. Xo'rozim ko'p, oyog'i  
cho'p,  
Qorni qopday, burni ipday.

**Saida ILMURODOVA,  
Samarqand viloyati,  
Kattaqo'rg'on shahridagi  
11-DIUM  
boshlang'ich sinf  
o'qituvchisi**

Pazanda qizgal!

### FOYDALI MASLAHATLAR

Ko'pincha garnir uchun tayyorlangan guruch bo'tqaga o'xshab, yopishqoq bo'lib qoladi. Go'shtli, sabzavotli taomlaringizning ajralmas sherigini tayyorlash uchun quyidagi tavsiyalarimizga amal qilsangiz, yaqinlaringiz olqishlariga sazovor bo'lishingiz, shubhasiz.

1. Birinchi navbatda, guruchni 20 daqiqa davomida sovuq suvda ivitib qo'ying. Ivitilgan guruchning suvini to'kib, chayasiz.

2. Suv va guruch miqdoriga qat'iy rioya qiling. Ya'ni guruch uchun suv 1:1,5 nisbatda bo'lsin.

3. Guruchni pishirishga chog'lanar ekansiz, unga, albatta, qaynoq suv soling.

4. Qopqog'i mustahkam yopiladigan qozoncha guruch pishirish uchun juda mos.

5. Garnir uchun 12 daqiqa kifoya, undan ko'p ham, kam ham emas. Birinchi 3 daqiqada qaynoq suv solib, qopqog'i yopiq holda, baland olovda qaynating. Keyin 7 daqiqa davomida o'rtacha olovda ushlab turing. Qolgan ikki daqiqada esa juda past olovda pishiring. Tayyor bo'lgunicha qopqog'ini aslo ochma.

6. Tayyor guruchga yana 12 daqiqa davomida qopqog'ini ochmay, dam bering. Vaqt o'tganidan so'ng, qopqoqni oching. Bunda qopqoqdagi suv guruchga tushmasin. Mana, dona-dona guruch ham tayyor!

7. Guruch uchun tuzni iloji boricha kamroq soling. Tayyor bo'lgandan so'ng mayda tuzdan solsangiz, maqsadga muvofiq bo'ladi.

8. Tayyor guruchni ehtiyotkorlik bilan aralashtiring, ezilib ketmasin. Garnirga sariyog' yoki istalgan o'simlik yog'idan solib, dasturxonga tortishingiz mumkin.

**NARGIZA tayyorladi**

**BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: (94) 645-90-70**

**Tong yulduzi**

**Muassis:**

**O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi**

**Bosh muharrir  
Feruz ADILOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**

Dilshod KENJAYEV,  
Alisher SA'DULLAYEV,  
Feruz JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV,  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir  
Nurbek  
QIDIRALIYEV**

**Rassom  
Feruzbek  
KAMOL o'g'li**

**Shahfaloqchi-dizayner  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV**

«Azmir Nashr Print» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul.  
Manzilimiz:  
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,  
30-uy. Indeks: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)  
e-mail: [tongyulduzi1929@uamail.uz](mailto:tongyulduzi1929@uamail.uz)  
telegram: [t.me/tongyulduz](https://t.me/tongyulduz)  
Adadi - 2 005  
Buyurtma - 23

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Gazeta haftaning dushbana kuni chop etiladi.  
Topshirish vaqti - 18:00  
Topshirildi - 18:00  
Tel./faks: (99871) 244-63-08